

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

PEDAGOGIKA-PSIXOLOGIYA FAKUL'TETI

MUSIQA KAFEDRASI

**5141000-musiqiy ta'lim yunalishi III-kurs talabasi *Bo'tayeva*
Zo'hraning An'anaviy va xalq qo'shiqchiligi fanidan
“Oilaviy marosim qo'shiqlarini o'rganishning mazmuni”
mavzusidagi**

R E F E R A T I

Tayyorladi: _____ *Bo'tayeva Z*
Qabul qildi: _____ *Islomov Yo*

“ _____ ” _____ 2011 yil

QARSHI – 2011 yil

REJA

Kirish

1. Marosim qo`shiqlarining ijtimoiy hayotda tutgan orni

2. Oilaviy marosim qo`shiqlarining turi , mazmuni va kuy ohangning tuzilishi

3. Musiqa ta`limi jarayonida oilaviy marosim qo`shiqlarini o`rganishni tugarak va milliy bayramlar asosida amalga oshirish.

Xulosa .

Foydalangan adabiyotlar ro`yxati

KIRISH

Mustaqil o'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy , ijtimoiy siyosiy va manaviy o'zgarishlar o'zining ko'lami va ahamiyati bilan tarixiy voqeadir. Mustaqilligimiz tufayli inson to'liq taminlanmoqda .Ularning madanyati , manaviy meros durdonalarini keng egallashlari , barkamol inson bo'lib yetishishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratilmoqda . Ammo tarbiya muammosi dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Prizidentimiz I.A.Karimov sog'lom avlodni tarbiyalab voyaga yetgazish borasida bunday degan edilar : “Sog'lom kishi deganda faqat jismoniy sog'lomlikni emas, balki sharqona va umumbashariy g'oyalar ruxida kamol topgan insonni tushunamiz” / I.A.Karimov o'zbekiston siyosiy – ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari, 57bet /.

Xaqiqatdan xam barkamol inson deganda yosh avlodni tabiat, jamiyat vaqidagi bilimlar bilan qurollantirish , o'z bilimini aql- zakovatini respublikamiz istiqboli yo'lida ishlatishga o'rgatish, ota bobolarimiz an'analarga va madaniy merosimizga xurmat bilan qarash , namunali axloq-odobga ega insonni tarbiyalab yetishtirish ko'zda tutiladi.

Yangilanish davrida barcha soxalar qatori xalq ta'limi tizimining ham eunalishini beliash “Ta'lim tug'risirisiga “Qonun va “Kadrlar taeyoriash Millie dasturi” orqali amalga oshirmoqga chunki sobiq savet tuzumi davrlariga ta'lim bilan tarbiya sohasida uyg'unlik buzil ib ular o'rtasida nomutanosiblik xosil bo'lgan edi.

Ta'lim tarbiya mazmunini yangilashning muhim tamoni milliy istiqlol mafkurasida umumbasharie qadriyatlar ustivorligini t'aminlagan xolda milliy qadriyatlarga suyanib ijtimoiy voqeallikka yangicha qarab yagicha tafakkurni qaror tanttirishdan iborad. Shunga ko'ra maktabga musiqa ta'lim jarayonida oilaviy marosim qo'shiqlarini o'rganish ham nazariy ham amaliy axamiyatga ega.

Yosh avlodni xar tomonlama komil inson bulib shakllanishiga barch fanlar qatori musiqaning ham o`rni aloxidadir. Euqorida qayd qilib o`tilgan ilmiy xulosalarga asoslangan holda biz “Musiqqa madaniyati darslariga oilaviy marosim qo`shiqqlarini o`rganish” mavzusini tadqiq etishga jazim etdik. Zero milliy qadriyatlarimiz xisoblanishi xalq musiqamiz janrlarini o`rganishi u orqali yoshlarga milliy furor xus-to`yg`ularini shakillantirish pedagogika fanining dolzarb vazifalaridan biridir. O`z tabiati milliy musiqqa bu borada eng ta`sirchan bositalardandir.

I. Marosim qoshiqlarining ijtimoiy hayotda tutgan o`rni.

O`zbek xalqining musiqa madaniyati ko`p asarlik tarixga ega , ko`pgina sozanda va xonandalar avlodining faoliyatida qaror topgan xalq xamda o`g`zaki an`anadagi professional musiqa san`ati bu xalqda rivojlik beradi . moddiy madaniyat yodgorliklarining tasdiqlashicha . bugungi o`zbekiston xududida markaziy osiyo xalqlarining ajdodlari yaratgan qadimgi sivilizatsiya mavjud bo`lgan. Arxeologiya malumotlari XX asr boshlarida ashxobot yaqinida popeshni ekspeditsiyasi tomonidan olib borilgan qozilmalar M.I.Masson S.P.Tolstov va boshqalar rahbarligida sobiq sovet davrida janubiy Turkmaniston , Xorazm , quyi Zarafshonda olib borilgan arxeologik ishlari shuni ko`rsatadiki , oramizdan bir necha ming yillar ilgari xam O`rta Osiyo territoriyasida yuqori darajada rivojlangan madaniyat mavjud bo`lgan.

O`zbek xalqi ajdodlarining musiqa sarchashmalari markaziy Osiyo xududida yashagan qarindosh xalqlar ,birinchi navbatda tojik xalqi ijodi bilan mustaxkam bog`langan. Bu musiqa asarlari X- XI asrgacha / ya`ni bu xalqlar chegaralanganlarigacha o`zida bir butunlikni ifoda etdi , keyinchalik u o`zbek va tojik musiqa madaniyatlarining shakillanishi uchun umumiy asos bo`lib xizmat qildi.

Markaziy Osiyo xalqlari hayotida tarixiy chegaralanish bosqichi taxminan bizning eramizgacha bo`lgan birinchi ming yillikdan boshlanadi. Bolar o`troq dehqonlar sug`diylar, baqteriyaliklar, xorazmiylar kabilar edi. Ular haqidagi ma`lumotlar avestoda ham uchraydi. Xalq poetik va musiqa san`atining boshlanishi uning davrlariga borib taqaladi. Xalq poetik va musiqa san`ati dastlab sinkretik halatda bo`lganligini Avesto kitobi va boshqa qadimgi oydgorliklar, shuningdek, Markaziy Osiyo xalqlarining bizgacha bo`lgan turmushi, ularning urf-odatlari, to`y-tomoshalarning elementlari guvohlik beradi. Buni arxeologiya, etnografiya va boshqa fanlar ham tasdiqlaydi.

Urug`chilik jamiyatining emirilishi va sinfiy jamiyatga o`tishi, Baqteriya, Sug`diyona va Xorazmda davlatlarning paydo bo`lishi, ahmoniylarning harbiy ma`muriy jihatdan birlashuvlari, Aleksandr Makedonskiy davlati, Grek-Baqteriya davlatining paydi bo`lishi eramizdan oldingi VII asrdan eramizning IV asrigacha bo`lgan jyda katta tarixiy davrni o`z ichiga oladi. Budavr epik xarakterli mifologik qahramonlik ustun bo`lgan qadimgi musiqali poetik ijodning yuzaga kelishi bilan mashhurdir. Bu davrlarda xudolarga si8g`inish bilan bog`liq bo`lgan turli xil marosimlarda qo`shiq aytilgan. (bu haqda Avestoda bayon etilgan) Masalan, muqaddas olov atrofida qo`shiq aytilgan, raqs tushilgan.

Xalq og`zaki musiqa ijodi folk`lor xalq badiiy faoliyatining tarkibiy qismi, xalq musiqa san`atining boshqa tutlaridan tarkibiy qismlari va uziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Mehnatkash omma tomonidan yaratilib, xalqning talantli vakllari ijrisoda sayqal topib , avloddan – avlodga o`tib kelayotgan badiiy musiqiy asarlar o`zbek xalq musiqa ijodini tashkil etadi.

“ Fol`klor terminini birinchi marta XIX asr tadqiqotchisi Vil`yam Toms tomonidan 1846 yilda qullanilgan bo`lib xalq bilimi, xalq donoligi, xalq donishmandligi demakdir.

Folklor asarlarida musiqa ,raqs , teatr san`ati elementlari qo`shilib ketadi, shu sababli folklor sinkretik san`at deyiladi. Ayni vaqtda folklor asarlari san`atning boshqa turlaridan o`ziga xos xususiyatlari bilan farq qiladi. Folklorda so`z, kyu va ijro birligi doimo saqlanadi. Xalq og`zaki ijodi uzoq davrlardan beri tarixning yuldoshi, uning chinahkam aks sadosi bo`lib kelgan . Utarixiy voqealarni xalq tushunchasi nuqtai nazaridan, mehnatkash xalq pozitsiyasidan kelib chiqib, badiiy shakllarda baholaydi. Xalq ijodini o`rganuvchi fan folklorshunoslik deb yuritiladi. Bundan tashqari, folklor asarlari bilan bir qancha fanlar shug`ullanadi: **tarixchilar** - tarixiy voqealarni xalq og`zaki ijodida qanday aks etganligini o`rganadi: **etnograflar** – urug`chilik jamiyatining emirilishi va sinfiy jamiyatfa o`tish, Baqtriya, Sug`diyona va Xorazmda davlatlarning paydo bo`lishi, axmoniylarning harbiy ma`muriy jihatdan birlashuvi, Aleksandr Makedonskiy davlati, Grek Baqteriua podsholigining vujudga kelishi ermizdan oldingi VII

asrdan to eramizning IV asrigacha bo'lgan juda katta tarixiy davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda epik xarakterni mifologik qaxramonlik ustun bo'lgan qadimgi musiqali poetik ijodining yuxaga kelishi bilan mashxurdir.

Bu vaqtlarda xudolarga sog'inish bilan bog'liq bo'gan turi xilo marosimlarda qo'shiq aytilgan (Bu xaqda avestoda bayon etilgan) Masalan: muqaddas olov atrofida qo'shiq aytilgan , raqs tushilgan.

Xalq og'zaki musiqa ijodi falklor xalq badiy faoliyatining tarkibiy qismi, xalq musiqa san'atining boshqa turlaridan o'ziga xos xususiyatlar bilan ajralib turadigan san'atdir. Mexnatkash omma tomonidan yaratilib , xalqning talantli vakillari ijrosida sayqal topib, avloddan – avlodga o'tib kelayotgan badiy musiqiy asarlar o'zbek xalq musiqa ijodining tashkiletadi.

“ Falklor” termini birinchi marta XIX asr tatqiqotchisi Vilyam Toms tomonidan 1846 yilda qo'llangan bo'lib , u ikki so'zdan iborat : “ Falk” – xalq , lor – bilim , donolik , donishmandlik , yani “ xalq bilimi”, “ xalq donoligi”, “ xalq donishmandligi” demakdir.

Falklor asarlarida musiqa, raqs, teatr san'ati elementlari qo'shilib ketadi, shu sababdan falklor sekretik san'at deyiladi. Ayni vaqtda falklor asarlari san'atining boshqa turlaridan o'ziga xos tomonlari bilan farq qiladi. Falklor so'z , kuy va ijro birligi doimo saqlanadi. Xalq og'zaki ijodi uzoq davrlardan beri tarixning yo'ldoshi uning chinakam aks sadosi bo'lib kelgan. Utarixiy voqealarni xalq ommasining tushunchasi nuqtae nazaridan , mexnatkash xalq pozetsyasidan kelib chiqib , badiy formalarda baxolaydi. Xalq ijodini o'rganuvchi , tekshiruvchi fan falklorshunoslik deb yuritiladi. Bundan tashqari , falklor asarlari bilan bir qancha fanlar shug'ullanadi : tarixchilar tarixiy voqealarning xalq og'zaki ijodida qanday aks etganini o'rganadi : etnogroflarni xalqning urf – odatlari qiziqtiradi; san'atshinoslar esa falklordagi musiqa , raqs, o'yin , xoreografiya va boshqalarni o'rganadilar ; tilshinoslar xalq ijodi tilining laxja va dealektlari bilan , adabiyotshinoslar falklor asarlarining yozux adabiyoti bilan munosabatlarini tekshiradilar.

O`zbek musiqa folklor xor qanday xalq ijodi kabi mehnatkashlarning fikri , orzu – umudlari , ularning turmushi va axloqi , sotsial va milliy ozodlik uchun kurashning ifodasi sifatida gavdalanadi. O`zbek xalq musiqasining mavzu jihatidan serqirraligi , janrlarga boyligi va xayotda tutgan o`rning xilma – xilligi va cholg`u musiqasi janrlari o`zi bajaradigan funksiyasi va turmushda tutgan o`rniga muvofiq ikki guruhni tashkil etadi.

1. Malum vaqt yoki malum sharoitdagina ijro etiladigan qo`shiq – ashulalar va choqg`u kuylari . bular oilaviy marosim qo`shiqlari , mehnat qo`shiqlari , allalar va boshqalar hamda xar xil tantana tomosha kabi marosimlarda ijro etiladigan cholg`u kuylardir.

2. Istagan vaqtda va xar kunday sharoitda , ya`ni xamma joyda ijro etiladigan qo`shiq va cholg`u kuylar , ularga o`zbek xalqining ananaviy musiqali folklor janrlar – terma / yoki chublama / , qo`shiq / tor ma`noda / , lapar , yalla va ashula , shuningdek , xuddi ularga o`xshash turdagi cholg`u pesalar kiradi.

Xar bir guruh o`ziga xos xarakterli belgi;arga ega . Masalan ijro etilishi malum vaqt yoki sharoitini taqazo qiladigan birinchi guruh ashula – qo`shiq janrlarining mavzusi o`zlariga xos ma`lum marosim yoki boshqa vaziyat bilan bog`liq bo`lib , undan deyarli chetlashmasligi bilan ajralib turadi. Quyida biz birinchi guruh qo`shiqlar turkumiga kiradigan oilaviy marosim qo`shiqlari ustida to`xtalamiz.

O`zbek xalq og`zaki ijodida qo`shiqlar salmoqli o`rin egallaydi. Qo`shiq atamasi turkiy “Qo`shmoq” fe`lininf o`zagidan yasalgan bo`lib , misraga misrani qo`shib kuylash , aytish manolarini anglatadi va bu atama ikki manoda qo`llanadi. Keng manoda u og`zaki shrika turini anglatadi va bu mano, yani she`riyat , qoshda , qo`shiq manolari Maxmud qashgariyning “Devonu lug`atit turk” asarida xam qayd etilgan / Pusk tillari lug`ati/. Tor majoda qo`shiq atamasi og`zaki lerik turga masub mustaqil janrni anglatadi.

Qo`shiqning mustaqil janr atamasi esa asarda ufodalangan mazmunga , qoshiqning ijro o`rni , tarzi va funksiyasiga qarab turli sifatlovchilar bilan birgalikda nomlanadi.

Marosim qo`shiqlari xalq qo`shiqlari orasida eng qadimiy xisoblanadi.

Eng qadimgi marosim qo`shiqlari vazn, qofil va boshqa poetik shakllari etibori jixatidan mukammal uyushmagan , so`zlar xam ongli tarzda kuylab qo`llanilmagan bir shakilda bo`lib , ular ko`proq marosim jarayonida muayyan xarakat ritmiga mos keluvchi undov. Xitob va nidolar xarakteridagi poetik parchalardan iborat tuzilishga ega bo`lgan . Shunga qaramay, bunday parchalar , tomondan , marosim jarayonida uyushtirilgan haraktni bir meyorda ushlab turish uchun xizmat qilgan bo`lsa, ikkinchi tomondan, ular marosim paytida kelishuvlarga ma`lum darajada ruhiy ko`tarinkilik ham bag`ishlagan. Binobarin, marosim qo`shiqlarning eng qadimiy namunalari garchi bizga qadar etib kelmagan bo`lsa ham, biroq insonning til va ongga ega bo`lgan eng sharafli zot sifatida shakllanishida marosimlarning etakchi rilni bajarganliklariga qarab aytish mumkinki, marosim qo`shiqlari ham ibtidoiy jamoa tuzumining ilk bosqichlaridayoq vujudga kelib, insondagi ong va til taraqqiyotibilan bog`liq holda bevosita marosimlar jarayonida sekin-asta ham shakl, ham mazmun jihatidan taraqqiy etib kelgan.

Insonga sihat-salomatlik tilash, uning turmushida to`kin-sochinlik, kundalik hayotida omad keltirish yoki inson hayotining muhim nuqtalarini qayd etish, nishonlash maqsadida maxsus o`tkaziladigan, xalq orasida qat`iy an`anaga kirib qolgan hatti-harakatlar marosim deyiladi. Marosimni o`tkazish paytida ijro etiladigan qo`shiq va aytimlar,o`qiladigan afsun va duolar marosim folklorini tashkil etadi.

Kuchli an`anaviyligi, turli-tuman ijtimoiy hodisalarnirasmiylashtirish, tabiathodisalariga ta`sir o`tkazishga intilish bilan marosimlar ijtimoiy hayotta katta o`rin tutadi. Marosimning ruhiy va estetik ta`sir ko`rsatishi, biror ijtimoiy akti uyushtirish, yunaltirish funksiyalari bevosita hatti-harakat , so`z hamda sehr-jodu qudratiga ega deb hisoblangannarsalar vositasida amal qiladi.

O`tkazilash vaqti, o`rni va tarzi funksiyalari va ishtirokchilar guruhi bilan marosim ikki katta qismdan iborat bo`lganligi uchun marosim fol`klori ham ikki

qismga bo'linadi. Bular: a) mavsumiy marosimlar fol'klori , b) oilaviy-maishiy marosimlar fol'klori.

Xullas, izlanishlarimizning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib oilaviy marosim qo'shiqlarni turlari va mazmuni haqida keyingi paragraflarda to'xtalamiz.

2. Oilaviy marosim qo'shiqlarning turi, mazmuni va kuy ohang tuzilishi.

Oilaviy marosimlarning turlari xam ko'p bo'lib , ular insonga umri davimida yo'ldosh bo'lib keladi. Xususan , o'zbek xalqida beshik to'yi , muchal to'yi, xatna /suuat/ to'yi nikoh to'yi motam marosimlari kabi oilaviy marosim turlari mavjuddir . Ushbu marosimlar garchan ‘ oilaviy’ deb atalsa-da , ammo odamda ularda qarindosh – urug'lar , kuni – qo'shiqlari va do'st – birodarlar qatnashishlari mumkinligi evasiga ommaviy tus oladi.

Oilaviy marosimlarda musiqa muhim o'rin tutadi. Bunda ham aytim , ham cholg'u musiqasi / so'ngisi metam marosimi uchun istisnodir/ qo'llanib ularning badiy vazifalari o'zaro farqlidir . Jumladan to'y marosimlarida karnay ,surnay nog'ora va doiralardan iborat cholg'u ansambili ishtirok etib, u bir vaqtning o'ziga xam badiy tin glov , xam axborot vosetasini bajaradi. Chunki bu ansambil ijrosidagi jozibali kuy – navolar ko'tarinki kayfiyat tug'diradi , xamda raqs o'yinlariga chorlaydi va unga jo'r bo'ladi. Aytim vositasida esa o'zgacha bo'lgan , lekin muhim vazifa amalga oshiriladiki shu boisdan asosiy diqqat – etiborni shu jihatga qaratamiz . Demak, aytimlar vositasida xar bir marosimlarning maqsadi yuzaga chiqa boshlaydi , boshqacha aytganda , oilaviy marosim aytimlarida shaxsiy va “ ommaviy” tuyg'ular mushtarak etilgan bo'ladi va shuningt bilan alohida ahamyatga molik. Shu bois birinchi galda yig'I aytimini tafsiflab o'tish maqsadga muofiqdir.

Yig'i – turli vaziyatlatda yuzaga kelishi mumkin bo'lsa-da , lekin uning janr sifatida xozir bo'lishi asosan oilaviy marosim, xususan motam marosim – ozoda to'liq amalga oshiriladi.

Motam marosimi bir yilga qadar etadigan urf – odatlarni o`z ichiga oladiki , bunda yig`i – yo`qloblar ham yil davimida marxumning yaqinlari / asosan xotin – qizlar/ tomonidan aytib turiladi . Yig`ilarga xos belgilar qatorida she`riy misralarning qofiyasiz bo`lishini , ularning mazmuni vaziyatga muvofiq badiqa etishini , chanqoq ohanglarni kuy yo`nalishida bo`lishi kabilarni takidlash mumkin. Mazkur yig`I negizida xajmi uch yaktga teng bo`lgan mungle ohang tuzilmasi yotadi. U 3 – bosqich pardasidan boshlanadi. 2 – parda orqali 1- tayanch /Iya/ ga kelib tugallanadi.

Shuni ham aytish lozimki , yig`i ohanglari oilaviy marosim aytimlarining muhim tasnifiy sifati bo`lib, ijro vaziyatiga ko`ra

“ vidolashuv’, “xayrlashuv” sematik – mazmunini anglatadi. Ammo to`y marosimlarida “ yig`I ‘ aytimi tabiiy xolda bo`lmay , balki badiiy tus olganligini ko`ramiz. Uning yorqin namunalari nikoh to`yiga oid “Yor- yor”larda uchraydi.

Yor – yor qo`shig`I kelinni kiyovnikkiga uzatib borish jarayonida ayollar tomonidan ijro etiladi. Uni aytish vaziyati esa qizning ota uyi , yaqin qarindosh – urug`lari , oila a`zolari bilan xayirlashuvidan . Boshlanib , to kiyov xonadoniga yetguncha qadar davom etadi. Xususan , xalqimiz orasida “ Toshkent yor-yor” nomi bilan mashxur aytim kuyi yig`I misolidan ma`lum bo`lgan 3-2-1 pardali kuyi oqim ohangidan unib chiqadi. / O`XMPt 231/. Aytimning umumiy tuzik tovushqatori mungli oltilik / kichik seksta/ doirasini qamrab olgan bo`lib , bunga 3 – parda tuzukning yarim tayanchi , 1 – parda esa asosiy tayanch tovushi bo`lib usuli raqsbon va ‘ sho`x” /o`ynoqi/ usullarga o`lchab – ritmi jixatidan xamohangdir.

Nikoh to`yi marosimlarida an`anaviy ijro etib kelinadigan qo`shiqlardan yana biri – “ Kelin salim” dir.

Kelin salimlarda xazil – mutoyibali goxo nayrovli so`z – iboralarga boy she`riy bandlar qo`llanib, xar bir band “ salom’ aytish bilan yakunlanib turadi. Kuy nuqtayi nazaridan qaralganda ularga xam mungli uchlik / 3-2-1 pardali/ ahangi asos bo`lganligi ma`lum bo`ladi.

Kelin salomning boshqa ko`rinishlarida xam kuylin ohangi malum variantlar bilan sadolanadi. Binobarin yor – yor va kelin salomlarning kuy – ohanglari o`zaro mushtarakdir.

Alla – oilada yangi tug`ilgan to`ng`ich farzand sharafiga odatda , beshik to`yi marosimi o`tkaziladi xamda shu vaqtdan boshlab chaqaloq xayotida muhim bo`lgan ikki – uch yillik “beshik davri” boshlanadi.

‘Beshikvaziyati” bilan aytiluvchi qo`shiq ‘alla” yoki “beshikqo`shig`I” deb ataladi. Onalar ijodi bo`lgan bu aytimlarda bolani ovutishga qaratilgan so`z – iboralar , shuninhdek , onaning farzandi haqidagi ezgu niyati bayon etigan to`rtliklar badiha etiladi.

Jumladan , “Oq qo`zim”deb boshlanuvchi alla qo`shig`i besh misrali aytimdan iborat bo`lib , uning to`rta misrasi she`r bandiga, beshinchisi esa “alla” naqorat so`ziga muofiq keladi. Bu o`rinda aytim ohang qurilmasi asosida ijod etilgani sezilib turadi.

Allaning yana bir turi mavjud bo`lib, u “ beshik vaziyati” dan xoli, “sahnaviy” tarzda ijro etiladi. Binobarin , bunday alla sharoitiga muofiq keng nafasli kuy – ohanglari bo`lishi xamda jo`rnavor so`zlarning qo`llanishi bilan aralib turadi.

2.Musiqa ta`limi jarayonida oilaviy marosim qo`shiqlarini tugaraklar va milliy bayramlar asosida amalga oshirish.

Maktabda musiqa ta`limi jarayonida oilaviy marosim qo`shiqlarini o`rganishda birgina musiqa darslari bilan kifoyalanib qolmaslik kerak. Demakke musiqiy ta`lim – tarbiyaning faol shakillaridan o`rinli foydalanish joizdir. Xususan dars jarayonidan , yani sinfdan tashqari musiqa tugaraklarida o`quvchilar ansambillarini tuzish va turli xil bayramlarda o`z konsert dasturi bilan ishtirok etishona shunday ahamiyat kasb etadi. Shunga ko`ra o`quvchilarning sinfda , yani musiqa darslari jarayonida o`rgangan qo`shiqlarni , olgan bilimlarini chuqurlashtirishi va malakalarini mustaxkamlash ko`p xisobdan sinfdan tashqari vaqtlarda bajarish mumkin bo`lgan musiqa mashg`ulotlari orqali amalga oshiriladi . Musiqa tugaraklari faoliyati xuddi ana shu nuqtai nazardan xam samaralidir. Binobarin undan ko`zlangan maqsad va vazifalar quyidagilarni tashkil etadi:

__ O`quvchilarga musiqa vositasida marosim qo`shiqlarga bo`lgan qiziqishlarini tarkib topdirish.

__ Musiqa tugaraklari jarayonida va milliy bayramlar asosida o`quvchilarni milliy musiqaga bo`lgan badiy ehtiyojning qondirish.

__ O`quvchilarga milliy musiqa orqali ta`lim – tarbiya berish jarayonida zaruriy bilim va malakalarni shakillantirish.

Bunday tadbirlarning zamirida o`ziga xos musakkablik mavjud . Ular musiqa tugaraklari va milliy bayramlarni tashkillashtirish uchun zarur bo`lgan darslar va qo`llanmalardan tartib va ijrochilar uchun cholg`ular kiyim libosini xozirlashdan iboratdir.

Maktabda qo`shiqchilik tugaraklarini tashkillashtirishda avvalom bor maxsus shart – sharoit va imkoniyatlar yaratiladi . Bunda ansambil mashg`ulot uchun maxsus xona ajratiladi, texnik vosetalar xozirlanadi.

Oilaviy marosimlarni madx etuvchi vedio va audio kasetalar albatta bo`lishi shart , shu bilan birga , xonani maqsadga muofiq bo`lgan yana turli boshqa anjom

va bezaklar bilan jixozlash mumkin. Bunday tadbirlarni amalga oshirishda tugarak a`zolarini faol qatnashuvini taminlash lozim , zeroki bu o`quvchilarni yana maqsad va do`stona ijodiy jamoaga birlashtirish uchun katta tarbiyaviy ahamyatga egadr.

Badiy raxbar tugarak mashg`ulotlarini o`tkazar ekan , o`quvchilarga xar tomonlama bilim berishga , o`rganilayotgan xar bir qo`shig`ining tub manosini anglab yetishga e`tiborini qaratilganligi muhimdir. Bunga xususan , o`rganilishi kerak bo`lgan musiqiy asarlarning tarbiyaviy axamyati qo`shiqlardagi xalqimizning orzu – istaklari , dunyoqarashi xis tuyg`ularini o`quvchilar ongiga singdirishda dastlab eng oddiy usullardan kichik – kichik xonishdagi xalq qo`shiqlarini o`rganishdan boshlamog`I muximdir. Shu bilan birga qo`shiqni buzmasdan to`g`ri aytishga o`rgatish ashula aytish ko`nikmalarini asta – sekin mustaxkamlay boorish o`quvchilarning o`zlari kuylaganda o`z tuyg`ularini ifoda qila olishlari juda muximdir.

O`qituvchi mashg`ulot davomida xar bir o`rganilayotgan qo`shiqning mazmuni bilan muntazam ravishda tanishtirib borish lozim.

Aylansiy yor, aylansin

Qoshlari qora aylansin

Shaftalazor ichida

Bodom qovoq aylansin

Yaqqu – yaqqu, yaqqu – yaqqu ,

Yaqqu – yaqqu, yaqqu – yaqqu.

O`qituvchi o`quvchilarga qoshiqni o`rgatish jarayonida ashula ohangiga quloq solishni , qo`shiqni qichqirmasdan , ifodali qilib aytishga xarakat qilishlikni o`rgatadi. Qo`shiqning mazmuni bilan tanishtiradi . Yurtimizda bugungi kunda xalqimiz tomonidan yaratilgan ko`plab marosim qo`shiqlari xar – xil falklor tanlovlari ko`riklari va madaniy xayotimizda to`g`ridan - to`g`ri yoshlarimiz tomonidan ijro etib kelinmoqda. Ana shunday marosim qo`shiqlaridan biri xalqimiz tomonidan to`ylarda bazimlarda ijro etib kelinayotgan kuy qo`shiqlaridir . Bu qo`shiqlarda xalqimizning qadimgi xis tuyg`ularini , to`y marosimlarda kelin va

kiyovga , xatna to`ylarida esa to`y bo`ladigan o`spiringa nisbatan xazil – mutoyiba bilan sug`orilgan yoqimli ohanglarni aks etganini ko`ramiz.

Bu kabi qo`shiqlarda yoshlik ,go`zallik ramzi , xazil – mutoyiba va payrovli rso`zlar maxsus leillarda vosop etiladi. O`qituvchi bu kabi qo`shiqlar orqali o`quvchilarni go`zallikka bo`lgan o`rop - odatlarimizga bo`lgan Bu tanga bo`lgan muxabbat xis tuyg`ulari shakllantiradi.

Go`zallikka, o`rf-odatlarimizga, Vatanga bo`lgan muhabbat tuyg`ularni shakllantirishga milliy bayramlarimizning ahamiyati juda kattadir. Bu bayramlarda o`zbek xalqining asrlar davomida shakllanib keigan betakror mavsum va marosimlar bilan bog`liq bo`lgan guzal mazmunli va shaklan milliy urf – odatlarini namoyish etish orqali, o`quvchilarning axloqiy madaniyatini, vatanparvarlik tuyg`ularini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki maktabda bayramlarga tayyorgarlik ko`rish va uni utkazish o`qituvchi hamda o`quvchilardan ma`lum darajada madaniyatli bo`lishni talab etadi. Shuni aytish kerakki, o`zbek xalqi tarixi va hayotida bayramlar ko`plab mavjud. Bular mehnat, madaniyat, oilaviy, diniy yunalishlargaega bo`lgan bayramlardir.

Mamlakatimizda mustaqillik shabadalari esa boshlagan dastlabki kunlardanoq xalqimizning madaniy-ma`naviy merosiga, milliy qadriyatlariga chuqur e`tibor qaratila boshladi. Shuni aytish kerakki, dunyodagi hamma mamlakatlarda bayramlar ko`p, ammo mustaqillik, istiqlol, ozodlik tufayli O`zbekiston o`z xalqining, o`z millatining o`z taqdirini qo`lga kiritdi. Mustaqillik bayramining ahamiyatini so`z bilan ifoda etish qiyin. Uni har bir o`quvchi yuragidan his etishi lozim. Chunki mustaqillik bayrami xalqimiz uchun eng muhim bayramdir.

O`zbekiston mustaqilligini asosiy ona diyor, ona xalq, ona tilini sevish, ulug`lash,asrab avaylash tuyg`usi tashkil etadi. Inson o`z Vatanida kamol topar ekan, Vatanga muhabbat tuyg`usi bilan yashaydi. Shining uchun ham har bir o`qituvchi o`quvchilarga muswtaqil O`zbekiston, uning bayrog`I, gerbi, madhiyasi, konstitutsiyasi haqida ma`lumot berishiva ularni elim deb , halqim deb yashashga da`vat etishi lozim.

Ona-Vatanga boʻlgan muhabbat, uni urf-odat va marosimlarini sevish, eʼzozlash hamda uning ravnaqiga har bir oʻquvchining oʻz hissasini qoʻshishga erishish muqaddas burchidir.

Mustaqillik bayrami kechalarini oʻtkazishda dasturning mazmuni va tuzilishiga qarab milliy va zamonaviy qoʻshiqlar, sherlar, raqslar galma – gal ijro etiladi.

Oʻzbekiston mustaqilligi bayramini jozibali va qiziqarli oʻtishi, oʻquvchilarni onadiyorga milliy urf – odatlarga, milliy qoʻshiqlarga oʻzbek xalqiga boʻlgan mexr – muxabbatni oshuradi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, Navruz, mustaqillik kuni, Oʻzbekiston konstitutsiyasi “Mexrijot” bayramlari bilan bir qatorda respublikamizda “xosil bayrami”, “paxta bayrami”, “xovli toʻyi”, ramazon va qurbon xayiti bayramlarini qilish qobilyatini oʻtkazish odat tusiga kirgan. Bu bayramlarga ijro etiladigan barcha musiqiy kuy va qoʻshiqlar qatorida oilaviy marosimlar bilan bogʻliq qoʻshiqlarni ijro etilishi avvalombor oʻzining tarbiyaviy axamyati bilan bir qatorda, oʻquvchilarimizni milliy anʼanalarimizdan xabardor qiladi, tarixiy obedalarga, bobolari ruxi ufurib turgan asari – atiqalarga xurmat ila munosabatga boʻlishlikka undaydi. Kelajagimiz boʻlgan yosh avlod milliy, qadriyatlarimizni qadrlashga undaydi, ularni vatanga muxabbat ruxida tarbiyalaydi.

Xulosa

Yurtboshimiz I.A.Karimov jamiyat haqida gapirib “ Biz qurayotgan jamiyat chinakkam insonparvarlik jamiyat bo`lishi darkor. O`zbekistonda yashayotgan har bir millat vakili ushbu xayot nematlaridan bahramand bo`lish huquqi va imkoniyatlaridan foydalana olsin.

Ularning biri boshini baland ko`tarib , faxr va g`urur bilan “ Men ozod va obod O`zbekistonning erkin fuqorosiman” deb olsin – deb takitlagan edi.

Bugungi kunda mustaqillik va istiqlilni mustaxkamlash madanyati shakillantirish komil insonni voyaga yetkazish musiqa san`atimizning axamyati ham kattadir . Ayniqsa ota – bobolarimiz tomonidan kuylanib kelgan qo`shiqlar tariximizning necha ming yillar oldingi xayoti turmush tarzidan guvoxlik beradi. Bu qo`shiqlarni qayta tiklash va o`quvchi yoshlarga o`rgatish ularda milliy rux , milliyg`urur va o`zligini anglash , milliy igtixor kabi o`zbek xalqining o`ziga xos xususiyatlarini shakillantiradi.

Biz o`z tatqiqotlarimizda milliy musiqiy qadriyatlarimizning o`zagini tashkil etgan oilaviy marosim qoshiqlarini muammoyimizni yoritishda asosiy maqsade qilib oldik. Zero o`zbek xalqining kuy va qo`shiqlari o`zining rang – barangligi ohangning takrorlanmasligi bilan bir – biridan farq qiladi. Ularni qanchalik chuqur o`rganmaylik yangidan yangi ochilmagan qirralari nomoyon bo`layotganligini ko`ramiz.

Olib borgan tatqiqotimiz natijalari shuni ko`rsatadiki xozirgi kunda kuylanib kelayotgan qo`shiqlarimiz bilan bir qatorda ham ohangi o`rganilmagan oilaviy marosim qo`shiqlarimiz borligini biz izlanishimiz davomida bildik.

Bu qo`shiqlar ohangi tatqiqotimiz amalyotida o`quvchilarga o`rgatildi va ularning qalbidan chuqur o`rin oldi. Eng asosiysi bu qo`shiqlar musiqa ta`limi va tarbiyasi jarayonida ona vatanga bo`lgan muxabbat milliy musiqiy qadriyatlarimizga bo`lgan xurmatni o`quvchilar qalbida shakillantirishga ko`maklashdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati .

1. Karimov. I.A. *O'zbekiston – buyuk kelajak sari . Toshkent. “O'zbekiston” 1998*
2. *Kadrlar tayorlash milliy dasturi. Toshkent “O'zbekiston” nashriyoti 1997 yil.*
3. Karimov I.A. *“Barkamol avlod orzusi” Toshkent “O'qituvchi” 1999 yil*
4. *Ta'lim to'g'risidagi qonun. Toshkent “O'zbekiston” 1997 yil*
5. Akbarov I.A. *Musiqqa savodi darslik. Toshkent. ‘Oqituvchi” 1962 yil*
6. Akbarov I.A. *Musiqqa lug'ati. Toshkent G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti 1987 yil*
7. Karamatov F.M. *“O'zbek xalq musiqqa merosi” XX asrda I-kitob .Toshkent G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1978 yil*
8. *To'sayev V.I.”Falklorni ansambili kak forma sovremenogo falklorezma . Nauka 1998 yil*
9. *Ibraximov O. o'zbek xalq musiqqa ijodi, - metodik tafsiflar. Toshkent 1992 yil*
10. *Komil Ochil. Qaldirg'ochni ko'ndirgan qo'shiq . “Zarafshon” Samarqand 1993*
11. *Amonullayev ‘Darslikka xalq merosini o'rganish . Boshlang'ich ta'lim 1993*
12. *Sarimsoqov B.”O'zbek merosi va falklori . Toshkent “Fan” 1986 yil*
13. *Mirzayev T. va boshqalar . O'zbek falklor ocherklari . Toshkent “Fan” 1998 yil*

Internet materiallari

www.ziyonet.uz

www.pedagog.uz

www.kutubxona.uz

www.kasu.uz

